

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



KURS ISHI

**Mavzu: Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmuni,
shakli va metodlari.**

**Bajardi. D.Majidova
Qabul qildi. D.Xodiyeva**

TOSKENT 2014 yil

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakli va metodlari.

Kirish

1.Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning ilmiy va nazariy asoslari

2. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va unga qo'yilgan pedagogik talablar

3. .Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakli va uslublari

Xulosa

Adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Respublikamiz mustaqilligi e'lon qilingan sana 1991 yil 31 avgust xalqimiz hayotida ulug'vor voqealardan hisoblanadi. Endi xalqimiz o'zining boy tarixi, madaniyati, urf-odatlarini o'rganishi, targ'ib qilish, o'zligini tanishi imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu voqeadan so'ng ko'p sonli o'qituvchilar jamoalari oldiga Vatan ravnaqi uchun xormay-tolmay xizmat qila oladigan, buyuk vatan yo'llarida o'z jonini ham ayamaydigan yoshlarni tarbiyalash vazifasi ko'ndalang qo'yiladi. Bu vazifa oliy ta'lim kontseptsiyasida alohida ta'kidlanadi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" nomli asarida yosh avlodni har tomonlama yetuk inson qilib ta'lim tarbiya berishda - SHuni unitmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va ta'rbiya olishiga bog'liq.

Ana shu talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim tarbiya sohasidagi asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim deb ta'kidlaydilar*.

SHuning uchun bunday ulkan vazifani amalga oshirishda sinf rahbari ham o'zining beqiyos hissasini qo'shadi. Sinf rahbarining asosiy vazifalaridan biri bizning kelajagimiz bo'lmish yosh avlodni to'g'ri, insonparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat. Tarbiya jarayonida o'qituvchi va sinf rahbari bir-birini tushunish kerak va sinf rahbari o'qituvchilarga e'tiborliroq bo'lishini taqozo qiladi.

Sinf rahbari ishini maktab ma'muriyati bilan birgalikda, oila va mahalla jamoasi bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni olib boradi. Maktab ma'muriyati sinfda rahbari va u olib borayotgan ishlarni qo'llab-

I.A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". T., "Ma'naviyat" 2008 y 61-bet

quvvatlash lozim. CHunki sinf rahbari o'z o'quvchilarini yaxshi biladi va ularni tarbiyalashni uchun nimalar qilishi kerakligini hisobga olib ish yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash, vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo'lida faoliyat olib boruvchi shaxsni tarbiyalash, ularni bu kurashga jalb ettirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu g'oyaga tayangan holda, tarbiya jarayonida

uning qonuniyatlariga muvofiq tarbiya metodlaridan foydalanib ish ko'rish lozim bo'ladi.

Tarbiya metodlari bu o'qituvchi (tarbiyachi) va jamoa tomonidan g'oyaviy va ma'naviy e'tiqodlarini, ma'naviy his-tuyg'u va odatlarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llari demakdir. Tarbiya metodlari o'quvchilarning o'z shaxsini takomillashtirish borasidagi harakatni ham tashkil etishni nazarda tutadi. SHu bois hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya metodlari o'qituvchi va o'quvchilarning tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro bog'langan, birgalikdagi faoliyati sifatida qarab chiqiladi. O'quvchilar u yoki bu tarbiyaviy ta'sirga turlicha munosabatda bo'ladilar. Bu ularning alohida xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o'rinli va samarali tanlanganiga hamda mohirona qo'llanganiga bog'liq. Tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir o'qituvchi tarbiya metodlari va ularning mohiyatini puxta o'zlashtirib olishi maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyaviy tizimning eng asosiy tashkil etuvchilaridan biri – bu shaxsni ijodkorlikka, mustaqillikka, insonparvarlikka, o'zini qadrlay bilish va o'zgalarni hurmat qilishga o'rgatishdir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ustivor yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- o'quvchilarning qiziqishi-xohishiga qarab ta'lim muassasasi va undan tashqarida tashkil etilgan turli xil uyushmalarga jalb etish;
- o'quvchilar ishtirokida muntazam ravishda har xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish;
- fan to'garaklari, texnik yo'nalishdagi to'garaklar va amaliy ijodkorlik mazmunini o'zgartirish;
- badiiy-estetik birlashmalarni tashkil etish va rivojlantirish;
- huquqiy ta'lim va tarbiyani takomillashtirish;

- ommaviy sport, harbiy vatanparvarlik ishlarini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzi malakasini shakllantirish;

- ta'lim muassasasi faoliyatini demokratlashtirish asosi sifatida o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish.

Bizning nazarimizda ta'lim muassasalarida xilma-xil tadbirlarni tashkil etish (usullari ham) va o'tkazishning umumiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi: ma'naviy-axloqiy yo'nalganlik; umummadaniy mazmun; mantiqiy yakunlanganlik, tadbirlarning yaxlitligi va g'oyaga bo'ysunganligi; hissiy rang-baranglik; bilish va yaratuvchilik asoslarining birligi; ishtirokchilarning umumiy madaniyatini oshirishni ta'minlash; tadbirda ishtirok etishning ommaviyligi, ya'ni unga ta'lim muassasasining barcha o'quvchi-yoshlarni jalb etishga harakat qilishi lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan qolda kurs ish mavzusini **«Sinf dan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakli va metodlari»** - deb belgilandi.

Kurs ishining maqsadi: Sinf dan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakli va metodlarini aniqlash.

Kurs ishining ob'ekti: Sinf dan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakli va metodlaridan foydalanish jarayoni.

Kurs ishining predmeti: Sinf dan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakli va metodlaridan foydalanish mazmuni.

Kurs ishining vazifalari:

1. Sinf dan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakli va metodlaridan foydalanish hozirgi holatini o'rganish.

2. Sinf dan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakli va metodlaridan foydalanish omillarini aniqlash.

3. Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligida bolalarni tarbiyalash shakl, metod va vositalarni belgilash.

Kurs ishining tarkibi: Kirish, Asosiy qism 3-bo'lim xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1.Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning ilmiy va nazariy asoslari

Maktabning o'quvchilar bilan olib boradigan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari xilma-xil ta'lim-tarbiya ishlari sinfan tashqari ishlar nomini olgan. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini yo'lga qo'yish shakllaridan biridir.

Sinfdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning

qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.

Maktab va sinfdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinf tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan tashqari, tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo'lishi lozim:

- pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat munosabatlarini shakllanganlikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish;
- ulg'atgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e'tiborda tutish zarur.

Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

- a) fan to'garaklari;
- b) mohir qo'llar to'garaklari;
- v) duradgorlik to'garaklari;
- g) sport to'garagi;
- d) badiiy havaskorlik to'garagi.

O'rta umumta'lim maktablarida bu ishlarni sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari to'garak rahbarlariga yaqindan yordam beradi. Qiziqishlari, intilishlari bir xil bo'lgan o'z o'quvchilarini biror to'garakka a'zo bo'lishga chorlaydi.

Sinfdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularni dunyo qarashini to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

– darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish;

– o'quvchilarning sinfdan tashqari ko'p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish;

– sinfdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish;

– umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish;

– o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish;

Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy.

Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi.

Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin:

- tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish;
- tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash;
- tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni, shakl va usullarini aniqlash;
- sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni guruhlashtirish, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni aniq rejalashtirmasdan uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlamasdan, ma'lum bir tizimga solmasdan turib ko'zda tutilgan maqsadga erishish qiyin.

Sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoachining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishga bog'liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o'quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi.

Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi.

Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Bu faoliyat ilmiy jamoa, adabiy va maktab teatrlarining ishlari, turli mavzularda o'tkaziladigan kitobxonlar konferentsiyasi va munozaralar, siyosiy, axloqiy, ilmiy-ommabop va mehnat mavzularidagi ma'ruza va suhbatlar, ijtimoiy-foydali mehnat, siyosiy axborot, bayoram kechlari va ertaliklari, to'garak mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi.

O'quvchilar sinfdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadi, turli vazifatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Sinfdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoada ishlashni o'rganadilar ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar, jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga odatlanadilar. Sinfdan tashqari faoliyat unda qatnashuvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Bu jarayonga ular ta'lim olayotgan maktabning sharoiti ham ta'sir etadi. Garchand mamlakatimizdagi barcha maktablarning vazifalari bir bo'lsa-da, o'sha maktablarning o'ziga xos xususiyatlari bor va bu xususiyatlar madaniy va milliy sharoitlarda yaqqol ko'rinadi. Tarbiyachilar, sinf rahbarlarining sinfdan va maktabdan tashqari olib boradigan tarbiyaviy ishlarida quyidagi ish usullaridan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

1. Og'zaki ish usullari. Turli axborotlar, majlislar, ertalabki yig'inlar, ma'ruzalar, kitobxonlar konferentsiyalari, munozaralar, uchrashuvlar, og'zaki gazetalar, radiojurnallar.

2. **Amaliy ish olib borish usullari**, turli joylarga sayyohlar, sport musobaqalari, olimpiada, iztoparlar ish faoliyati, yosh tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar.

3. **Ko'rgazmali ish usullari**. Maktab muzeylari, urush va mehnat qahramonlari xonasi, yangi kitoblar ko'rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qolibiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishni taqozo etadi. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, ahil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarolari bo'lishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasining istiqloлга erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'liga ega bo'lishi, xalq xo'jaligining turli sohalarida, jumladan xalq ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan borliq jarayonini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida»gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloл g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Ushbu Kontsepsiya ham xuddi shu maqsadda, shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga yo'naltirilgan.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiyaviy ishlar huquq-targ'ibot organlari, ijodiy uyushmalar, Davlat va nodavlat jamg'armalar, qo'mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishlari, maqsad va vazifaaari.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilish.

Tarbiyaning bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'analarga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun: – yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish;

– o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

– har bir o'smarning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish. Inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko'rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

– insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunadigan, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik), muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolg'onchilik, tuhmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo'llanishi lozim.

– vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat-muloqotni o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstitutsiyasiga, Bayrog'iga, Gerbiga, Madhiyasiga, Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

– qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, Insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya;

– mustaqil davlatimiz – O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish. Uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkora-ochiq tashqi siyosatiga va o'z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to'g'ri tushuntirmoq kerak;

– turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondoshish fazilatlarini shakllantirish;

– sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo'lish istagini shakllantirish;

– yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Tarbiyaning asosiy tizimi quyidagicha bo'lishi lozim :

– tarbiya – tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigit-qizning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e'tiborga olish;

– yoshlarda istak va imkoniyat muvofiqligi tuyg'usini qaror toptirish;

– milliylikning o'ziga xos an'analari va vositalariga tayanish;

– shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o'quvchilar o'rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e'tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo'lish,

Amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksiz ishiga va turli yoshdagi, bolalarni qamrab olishga alohida ahamiyat berish lozim.

O'smir yigit va qizlar nafaqat bo'lg'usi katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyanan holda ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligani oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarning o'ziga xosligi shundaki, to'g'arak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

2. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va unga qo'yilgan pedagogik talablar

Tarbiya jarayonining mazmuni bolalarga beriladigan ma'naviy axloqiy bilimlar tizimi, ishonch, e'tiqod, intizom, xulq-atvorni bir butun holatini tashkil etadi. Mustaqil O'zbekistonning, istiqbol va istiqboli uchun fidoiylilik ko'rsatuvchi avlodni tarbiyalash mazmuni tamoman o'zgacha xarakter kasb etmoqda:

- fuqarolik demokratik jamiyatni barpo etish mohiyatini anglab oluvchi;
- vatanini har doim turli oqimlardan himoya etuvchi;
- diniy bag'rikenglik va mehr-muravvatli bo'lish;
- davlat siyosatini tushunish unga fidoiy bo'lish;
- o'zligini anglash, ajdodlar merosini qadrlash;
- yuqoridagi komil insonga xos sifatlarni tarbiyalashda;
- maqsadni aniqligi va uni to'g'ri yo'naltirish madaniyati;
- tarbiyachi-o'qituvchi va tarbiyalanuvchini hamkorlik faoliyati;
- o'zini anglash, mustaqil fikrlovchi e'tiqodligi va ixtiyorlik.

Tarbiyaviy ishlarning mazmunida bir butun yondashishdan bosh maqsad, “Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoiylari dasturi”dagi g’oyalarni bolalarning ongida o’ziga xos va mos ravishda singdiradi.

-Xalqimizning boy ma’naviy, an’ana, udum, urf-odatlar va ajdodlarimiz merosidan foydalanish.

-O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, adolat, haqiqat va erkinlikni, ishonch-e’tiqodni tarbiyalash.

- Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi mohiyatini izohlash.

- Mehrli-muruvvatli va bag’ri kenglik.

Ayniqsa kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning ta’limiy- tarbiyaviy faoliyatlari o’ziga xos xususiyatga ega: o’quvchilarda hayotiy tajribalarning kamligi, o’quv-tarbiya jarayonida hodisalarga qiziqish, «yaxshi», «yomon» harakatlarga chuqur munosabat bildirsa olmasligi kabilar.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining dars va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish o’ziga xos qoidalarga egadir:

1. Har bir sinf jamoasining tarbiyalangan darajasini o’rganish.
2. O’quvchilarning oilaviy hayoti, ota-onaning farzand tarbiyalashdagi burchi va vazifasini qanday his etishi.
3. Kundalik o’zgarishlarga o’quvchilarning munosabati.
4. O’quvchilarning sharqona milliy urf-odat, an’analar haqidagi bilim darajasi.
5. Qomusiy ma’rifatparvar, mutafakkirlar hamda hozirgi zamon shoir, yozuvchilarning ijodiyotidan namuna bilishlari. Mazkur qoidalar boshlang’ich sinflarda sodda holda qo’llaniladi.

Yuqoridagilarni aniqlashda suhbat, anketa usullaridan foydalanish o’rinlidir. SHundagina har bir o’qituvchilarning betakror, bir-biriga o’xshamagan tarbiyaviy tadbir rejalari bunyodga keladi. Bunday rejalar tarbiyaviy ta’sirga ega bo’lib maqsadga erishtira oladi.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning asosiy omillari:

1. Vatanga muhabbat va insonparvarlik.

2. Milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish.
3. Ma'naviy tarbiya (axloq va odob).
4. Iqtisodiy tarbiya.
5. Ekologik tarbiya.
6. Go'zallik tarbiyasi.
7. Jismoniy barkamollik (sog'lom avlod uchun).
8. Ota-onalar bilan ishlash.

Yuqoridagi omillarni rejalashtirishda tanlanadigan mavzular quyidagi talablarga javob berishi kerak.

1. Tarbiyaviy tadbirlar rejasi va undagi mavzular davr talabiga javob berishi.
2. Tanlangan mavzular milliy va umuminsoniy qadriyatlar qamrovida bo'lishi.
3. Tarbiyaviy tadbirlar uzviylik qoidasiga amal qilgan bo'lishi.
4. Mavzular o'quvchilarning yoshi va bilim saviyasiga mos bo'lishi.

Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishda «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoiyllari» dasturi. O'zbekiston Respublikasi «Kamolot ijtimoiy harakati» dasturi mos qilib olindi. Quyidagi keltirilgan reja taxminiy bo'lib, o'z shart-sharoitingizga qarab ijodiy o'zgarishlar kiritish mumkin.

Tarbiyaviy tadbirlar rejalaridan namunalar

Dastlabki rejaga O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi «Madaniy merosga - ixlos» yuzasidan tuzilgan Nizom asos qilib olindi, u quyidagi mazmunga ega:

1. Vatan g'ururi – kamolot mulkining asosi (I-II sinflar uchun).

- a) Tug'ilgan uy, ko'cha, shahar va o'lkalarining tarixi.
- b) Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona ekanligi.
- v) Atrof tabiatidagi o'simliklarning nomi va uni muhofaza qilish.
- g) O'lka tarixiga oid (tarixiy, obidalar, kimlar yashagan, iqtisodiy boyligi, san'ati va kelajak rejalar) ma'lumotlar.
- e) Kindik qoni to'kilgan joyning tuprog'i aziz hissini singdirish.

2. Turmush madaniyati

- a) SHarqona oila.

- b) Ota-ona mehri, ularning borligidan fahrlanish.
- v) Oilada sharqona urf-odatlar, an'analar qonun va qo'ilalarga amal qilish.
- g) Qariyalar tarixini o'rganish, ularning yaxshi fazilatlari bilan chuqurlashish va g'amxo'rlik qilish.
- d) Turmush va bozor iqtisodiga sharqona munosabat uyg'otish.
- e) Jismoniy barkamollik va sport.

3. O'zbek tilining sofligi – xalq iftixori

- a) Har bir millatni ona tili va unga mehrli milliy g'ururini gul tojisi ekanligi (xalqning maqol, rivoyat, hikoyatlaridan foydalanish).
- b) O'zbek tilnning tarixi, rivoji.
- v) O'zbek tilining istiqboli.
- g) «Til bilgan elni biladi» (dunyo tillarining mohiyati haqida).
- d) Millatlararo totuvlik.

4. O'zbek milliy urf odat, rasm-rusumlar va marosimlar

- a) Oilaviy urf-odatlar.
- b) Rasm-rusmlar va ularning tarixi.
- v) Marosimlar ularning turlari, tarixi va mazmuii.

III-IV-sinf o'quvchilari uchun Vatan g'ururi kamolot

mulkiniig asosi:

- a) O'zbekiston hududi va uning tarixi haqida ma'lumot.
- b) O'zbekiston o'tmishdagi podshox va xonlar, ulardagi sifatlar.
- v) O'zbekiston tabiati, hayvonoti va o'simlik olami.
- g) O'tmish va mustaqil O'zbekiston.
- d) Butun dunyo o'zbeklari nima bilan faxrlanishlari.
- e) O'zbekiston madhiyasida milliy g'urur.

Turmush madaniyati:

- a) Oilaning iqtisodi ildizi, uni boshqarishda oila a'zolarining hamjihatligi. Byudjet taqsimoti.
- b) Oilaviy an'analar va unga nisbatan sadoqat hissi.
- v) Oilaviy marosimlar. Oilaning har bir a'zosining o'rni va burchi.

- g) Oila istiqboliga xiyonat qilmaslik.
- d) Oila a'zolarining burchi.
- e) Zamonaviy oilaning shakli, ma'naviy go'zalligi. SHarqona oila jihozi.
- j) Sog'lom tan. Sport xonadon ko'rki.

O'zbek tili sofliги xalq iftixori:

- a) Tilning tarixini o'rganish. Dastlabki turkiy tilda yozilgan asarlarni o'rganish (Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy).
- b) Tilshunos olimlar bilan uchrashuv.
- v) Sof o'zbek tili sirlari, til o'rganish haqida donolar hikmatlari.
- g) SHarqona o'qishning ohangdorligi haqida ma'lumot berish.
- d) SHarqshunoslik va til-adabiyotlar ilm maskanlariga tashrif buyurish.

Milliy urf-odatlarі, rasm-rusmlar va marosimlar:

- a) Milliy urf-odatlarі kelib chiqish tarixi, unga amal qilishning ijobiy tomonlarі.
 - b) Xalq folklor va yodgorliklarida rasm-rusum, irim-sirimlarіni asoslab berilishi.
 - v) Turli millat xalqlarining urf-odatlarі va ularga munosabat.
 - g) Ajdodlarimizning kiyinishi, yurish-turishiga o'zbekona munosabat bildirish.
- Hozirgi zamon talablari-chi? To'g'rimi?

San'at va madaniyati me'morchiligi:

- a) San'atning sharqona ko'rinishlarі. Ajdodlarimiz san'ati tarixi.
- b) San'at ustalarі (o'tmish va hozir).
- v) San'at maskanlarі va uning turlarі. san'atga munosabat.
- d) Milliy san'atning kelajagi.
- e) Me'morchilik tarixi. Madaniy me'morchilik koshonalariga sayohat va uni o'rganish.
- yo) Qo'li gul ustoz va shogirdlar hayoti va kelajagi.
- z) Me'morchilik ko'rinishlarі (tanlab o'rganish).

Bobolardan bolalarga nasihat va pandlar:

- a) O'zbek xalqining qadimiy yodgorliklarі.
- b) A.Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, G'azzoliy, Haziniylar ijodiyotida odob-axloq masalalarі.

- v) O'zbek shoirlarining pandlari. Zebiniso, Zavqiy, Nodira, Anbar Otin.
- g) Zamonaviy shoir va shoirlar. Uchrashuv va kechalar tashkil qilish. Ularning ijodiyotiga tashabbus qilishga undash.

O'zbekona insoniy, yuksak axloqiy sifatlar

- a) Allomalarning o'g'il va qizlarga aytgan nasihatlar.
- b) Qizlik iffati, hayosi, g'ururi.
- v) Oila va jamoat mehnatiga to'g'ri munosabatda bo'lish.
- g) Inson go'zalligini anglatuvchi belgilar.
- d) «Yaxshilik» va «yomonlik»ni keltiruvchi hasob, uning sabablari, obro' qozonish oson ish-mi?
- e) Sayoq yurgan tayoq yer.
- yo) Bozor qilish odobi.
- j) Tabiat go'zalligini saqlash.

O'quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o'zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko'p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarining samarali ishlashiga bog'liqdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatini to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi, to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog'lanishiga zamin yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.
2. O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarni o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish.
3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish.

4. Umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish.

5. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy.

Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator kishilarni kiritish mumkin:

1. Tarbiyaviy ishlar sohasida erishgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish.
2. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash.
3. Tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash.
4. Sinfdan, maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish, guruhlashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. Shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarni o'rganadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar. Jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga o'tlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi:

1. Og'zaki ish usullari: majlislar, yig'inlar, ma'ruzalar, kutubxonalar, konferentsiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jurnallar.
2. Amaliy ish olib borish usullari turli joylarga sayyohatlarga, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar

ko'rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishga taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog'liq va uning davomiyligidir.

Yuqoridagi qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar turli qo'llanmalar, asboblari, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o'rganadilar, o'z-o'zini tekshirish uchun turli ma'lumot va tayanch materiallarini jalb etish ko'nikmalarini egallaydilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishni rejalashtirish bolalarning yosh xususiyatlariga, maktabning joylashgan shart-sharoitlariga, ijodiy birlashmalariga, ilmiy markazlar bilan o'zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rinbosarining faoliyati, o'z ifodasini topgan xujjatlar ro'yxati, xalq ta'limi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi.

«Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar» kontseptsiyasi xalq vazirligi tomonidan 1993 yilda tasdiqlangan.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ishlab chiqiladi.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda sinfdan tashqari ishda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha va ma'lumotnoma adabiyotlari laboratoriya uskunalari, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi. Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashning xilma-xil shakllarini olgan, nazariy bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi;
- tajribalar, ijodiy tushdagi ishlarni bajarishni, asboblarni loyihalashni, maketlar, modellar va hokazolarni tayyorlashni olgan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar sistemasi maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar metodikasi fani va bo'limiga sinf rahbarlarining ishlari, maktab ma'muriyatining tarbiyaviy ishlari kiritiladi. Bunda o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muomilasi, adolatli bo'lishi, ta'sir ko'rsata olishi kerak.

O'quvchi yoshlarni hozirgi zamon ma'naviyati bilan ongini sug'orish, ya'ni singdirish kerak. O'quvchilarni qadriyatlarimiz asosida urf-an'alarimiz asosida tarbiyalash har bir o'qituvchining vazifasi.

O'quvchi atrofini o'rab turgan vositalar, yaxshi-yomon odatlar, o'qituvchilar, maktabning muhiti, o'quvchilar tarbiyasini to'g'ri, ongli ravishda o'rganish va qabul qilish. Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

To'garak turlari:

1. Fan to'garaklari.
2. Mohir qo'llar.
3. Duradgorlik.
4. Sport musobaqalari.
5. Badiiy havaskorlik.

Ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashda xalqning boy, milliy ma'naviy an'analarga, urf-odatlariga hamda qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy ishlarni amalda ishlab chiqishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi- shaxsning aqliy-axloqiy tarbiyalashda erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda quyidagi pedagogik talablar mavjud:

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining to'garak qatnashchilari ongida yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak. To'garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so'nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish

o'rin tutadi. To'garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bo'lishi, ular davlatimiz ramzlarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni yaxshi bilish kerak. Maktabdan tashqari ta'lim o'qishlariga, hohishlariga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtlarda o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha to'garak qatnashchilariga talablar qo'yilishi kerak:

1. Vatanga muhabbat, komil inson tarbiyasi;
2. Estetik ta'lim;
3. Sayyohli yo'nalishi bo'yicha to'garaklarga qatnashish.
4. Ekologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha to'garaklar;
5. O'quvchilarni ma'naviy axloqiy yo'nalishi bo'yicha;
6. Xuquqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha;
7. Texnik ijodkorlik yo'nalishi bo'yicha;
8. Istiqlool bolalari va iste'dodli yoshlar;
9. Iqtisodiy ta'lim.

O'quvchilarning mustaqilligi turli darajada bo'lganida mustaqil tayyorgarlik amalga oshirilish mumkinligini hisobga olish muhimdir, albatta bu esa ular shaxsining shakllanishiga shubhasiz ta'sir ko'rsatadi. Ayrim o'quvchilarning ishdagi faol va mustaqil holati tarbiyachining aralashuvini talab etmaydi, chunki o'quvchilarning o'zlari oldilarida turgan vazifalarini va ularni hal etish yo'llarini ancha yaxshi tushunadilar.

Bolalar tarbiyachi yordamisiz ishlaydilar. Bu yerda tarbiyachining aralashuvi maqbul emas. Chunki bunday holat bolalarning mehnatsevarligini, bilish ehtiyojlarini shakllantirishda eng katta imkoniyatga egadir.

O'quvchi mustaqil harakat qilib, lekin o'z ishini tarbiyalashning fikri va bahosiga bog'liq qilib qo'ygan paytda tobe mustaqil holat vujudga keladi. Ish qiziqish va ishtiyoq bilan bajarilsa ham mustaqil ishni bajarayotgan harakatlarda ishonchsizlik jihatlari mavjud bo'ladi.

3. Sinf rahbarining rahbarligi va nazorati ostida harakat qiladigan o'quvchilar toifasida majburiy ijro etish holati paydo bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishga unchalik qiziqish bildirmaydilar. Ular ko'pincha sinf rahbarining yordamini so'rab murojaat

qiladilar, kuchli o'quvchilarning qo'llab-quvvatlashidan foydalanishga intiladilar, agar bunday qo'llab-quvvatlash bo'lmasa, ishni davom ettirishga irodalarini ishga solmaydilar. Bunday o'quvchilarda tashqaridan majbur qilish vaqtida harakat qilish odati mustahkamlanadi. Agar bunday holat barqaror bo'lib qolsa, u o'quvchining faqat aqli emas, shu bilan birga ma'naviy rivojlanishiga ham to'sqinlik qilishi mumkin.

Maktabda va sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni bir-biriga hurmati, axloqiy sifatlari jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda o'quvchilarning bir-biriga bo'lgan muomala madaniyati ham shakllanadi. O'quvchi o'qituvchiga taqlid asosida yoki do'stlari orasida o'rgangan tarbiyasi muomilasiga ta'sir qilish mumkin. O'qituvchi o'quvchilar orasida muomala-madaniyatni shakllantirish uchun avvalambor o'quvchining o'ziga bo'lgan muomalasini etiborini o'rganishi kerak.

O'quvchi maktab qoidalariga rioya qilish bilan birga, o'qituvchi talabiga ham javob berishi lozim. O'qituvchi talablariga:

1. Darslarga to'liq qatnashish.
2. O'quv qurollari bilan ta'minlanganligi.
3. O'qituvchini diqqat bilan eshitish.
4. Topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish.
5. Tashkiliy ishlarga faol qatnashish.
6. Sinf intizomiga rioya qilish.
7. Tozalikka rioya qilish.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni nazoratsiz ijro etish holati rasmiy ijrochilik, ishtiyoq va havas bilan mehnat qilishni istamasligini yashirishga intilayotgan o'quvchilarda kuzatiladi. Bunday holatning uzoq vaqt mavjud bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, aks holda o'quvchilarda ishiga nisbatan rasmiy munosabat jihatlari paydo bo'ladi, bu esa ularni mehnatdagi tashqi faollikni yo'qqa chiqaradi.

Sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarda o'quvchilarning hatti-harakatlari oldindan juda qattiq tartibga solib qo'yilganligi xususida e'tirozlar bildirilmoqda.

Mustaqillikni tarbiyalash vazifasi qo'yilmagan, bolaning har bir qadami pedagogning irodasiga bo'ysungan joylarida ana shunday holat mavjuddir. Xuddi

shuning uchun mustaqil tayyorgarlik samaradorligi, o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan o'qituvchi, sinf rahbari o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish vositalarini puxta o'ylab tanlaydilar, ularning ishlashi uchun oqilona shart-sharoit yaratishga intiladilar.

Maktab o'quvchilarining mustaqil tayyorgarligiga pedagogik rahbarlik shunday qurilish kerakki, u o'quvchilarni charchatib qo'ymasini, doim bir xil tusda bo'lmasin, yoki haddan tashqari oson, aqliy va irodaviy kuch-g'ayratini sarflashni talab qilmaydigan bo'lmasin.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishda tarbiyachi eng muhim vazifa o'quvchilarni o'quv vazifalarini hal etishga o'rgatishdan, buning uchun harakat usullarini to'g'ri tanlashdan, o'z hatti-harakatlariga rahbarlikni faoliyatini nazorat qilishdan, mustaqil ish ko'nikmalarini boshqa muhim xayotiy vaziyatlarga o'tkazishdan kelib chiqishdan lozim ekanligini nazarda tutish lozim. Bunda mustaqillik mazmuniga fikrlash faoliyatining mustaqilligi, intizom, uyushqoqlik va o'z-o'zini nazorat qilish kabi to'rt tarkibiy qismi kirishini hisobga olish muhimdir.

Mazkur jihatlarni shakllantirish ustidan nazoratni amalga oshirish sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qilayotgan o'qituvchining muhim va murakkab vazifalaridan biridir. Buning uchun o'quvchi faoliyati natijalarini hisobga olishni va bu jarayonni tahlil etishni uyushtirish zarur. O'qituvchi sinf-dars faoliyati uchun xos bo'lgan shakllarni istisno etib, nazorat qilishning bir qancha usullarini qo'llashi mumkin. Eng kuchli va qobiliyatli o'quvchilarga homaki yozuv bilan ishlash xuquqi beriladi. Unda qoida ko'rsatiladi, bu qoidani tasdiqlovchi misollar keltiriladi, o'quv vazifasi qayd etiladi. Yozuv juda qisqa bo'ladi, lekin u o'quvchining fikrlashi qanday borganligini ko'rsatadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'quvchilarni ayrim ko'nikmalarga o'rgatishni nazorat vositasi deb hisoblash kerak. O'z-o'zini tekshirish, o'zaro tekshirish usullariga o'rgatish o'qituvchining o'quvchilar bilan shunday aloqasini talab etadiki, bunda ularning fikrlash ishi jarayoni ravshan bo'ladi. O'quvchilarning o'zlari harakatni taklif etadilar vash u bilan pedagogga mo'ayyan ma'lumot beradilar.

Sinf rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash tarbiyaning yetakchi tamoyilidir. Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi yangi pedagogikada to'la ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kurslarida bayon etilgan jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv-mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish.

Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma hisoblanadi.

4. O'rta umumta'lim maktablarida sinfda va maktabdan tashqari ishlarda sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi.

Sinfda va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar xayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog'lanishga zamin yaratadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko'p qirralidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi: Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish.

O'quvchilarni maktabdan va sinfdan tashqari ko'p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o'quvchilar, tashkilotlar, sinf faollari yordamida yo'lga ko'yish. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar o'quvchilar, tashkilotchilar sinf faollariga yordam ko'rsatish. Umummaktab va maktablararo tarbiyaviy tadbirlarga qatnashish. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

Bu borada tashkilotchilar faolligini 3 ta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, umumiy va ma'muriy.

Bular o'zaro uzviy bog'langan bo'ladi. Tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin:

1. Tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish;
2. Tarbiyaviy ishlarni maqsad va vazifalarini aniqlash.
3. Tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni hamda shakl usullarini aniqlash.
4. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni guruhlashtirish boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

SHular asosida yangi bilimlarni hosil qiladi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatlarga duch keladilar. SHuning uchun ham maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy bo'ladi. Maktab tashqaridagi ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarini o'rganadilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari o'z ishini reja asosida olib boradi va uning bajarilishini ham nazorat qilib boradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning umumiy rejasi, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, yetakchi ota-onalar qo'mitasi, ish rejalari ishini ham e'tiborga olishi kerak.

Ish reja maktab direktorii tomonidan tasdiqlangan. Ish rejasida boalalarning yosh xususiyatlariga maktabning joylashgan shart-sharoitiga, ijodiy birlashmalariga ilmiy markazlar bilan o'zaro tarqalgan aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rinbosarining faoliyati o'z ifodasini topgan hujjatlar ro'yxati xalq ta'limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi. A. Jo'raevning «Tarbiyaviy darslarni o'tish» risolasida mustaqillik g'oyasi bilan bog'langan tarbiyaviy tadbirlardan qoidalarga asoslangan qonunlar belgilangan. Ijodkor rahbar hamda ilg'or o'qituvchi tarbiyachilar o'z faoliyatlar ijarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi tamoyillarni asos qilib oladilar:

-tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish;

-ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish e'tiqodga aylantirishdan iborat ekanligi;

-tarbiya jarayoni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lab bola qalbiga va ongiga ta'sir ko'rsatish;

-tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar jamoasi jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib tarbiyaning ta'lim bilan uzviyligini ta'minlash;

-tarbiyaviy jarayonda bolalarni tarbiyalash darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o'stirish;

-bola shaxsiga hurmat va talabchanlik;

-bolalarning yosh va ruhiy holatini hisobga olish;

-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tomonlari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, uni qay darajada olib borish sinf rahbari va tarbiyachining pedagogik mohiyatiga bog'liq.

Sinf rahbarining o'quvchilarga nisbatan mehr va muhabbat, pedagogik jamoasiga va ota-onalarga nisbatan talabchan bo'lgan holda ish tutishda va muntazam o'z ustida ishlab, sabr-bardoshli, o'z fikrlarini puxta bayon qilib, o'zgalarni o'ziga jalb qila oladigan xislatlarni o'ziga mujassamlaydi.

Davlat va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan barcha hujjatlar mohiyatini, Prezident asarlarini yaxshi bilishi, uni o'quvchi-yoshlar orasida targ'ib eta olishi, xalq pedagogikasi an'alarini, o'zbek xalqi milliy urf-odatlarini, qadriyatlari, allomalari o'gitlarini yaxshi bilishlari lozim.

– Mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatini yaxshi bilishi va doimo uni o'z faoliyatida hisobga olishi, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ilmiy asoslari hamda yangicha usul va metodlarini yaxshi bilishi;

– radio, televidenie va ommaviy axborotning boshqa vositalari orqali berilgan eng so'nggi yangiliklardan boxabar bo'lishi hamda ularning mohiyatini o'quvchilarga yetkaza olishi;

– sinfdan tashqari tadbirlarni tayyorlash va o'tkaza bilishi;

– tuman, shahar, viloyat, respublika miqyosida o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishi;

– maktabda o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borayotganlarga metodik tavsiyalar berib borishi;

– muntazam ravishda o'z malakasini oshirib turishi, o'z sohasi bo'yicha o'tkaziladigan seminarlarda ishtirok etish.

Fuqarolik faoliyati o'z davlati oldidagi huquq va burchlarini tan olishni, jamiyat belgilagan yashash va axloq me'yorlariga ongli rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma'naviy yetuklikni barqaror etadi:

– islohotlarning taqdiri va samarasi uchun javobgar, yurtimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi shaxslarni shakllantirish borasida ustuvor davlat siyosati yurituvchi;

– siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni davlatning ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilish. Vatanparvarlik va baynalmilallikni his etish, ijtimoiy siyosiy hayotda faol qatnashishga shay turish;

– xalq, davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya'ni qonunchilik tamoyillarini, o'zining Vatan, mahalla, oila oddidagi huquq va burchlarini bilishi, ularga qat'iy amal qilishi. Qonunchilikning buzilishiga murosasiz munosabatda bo'lish;

Tarbiya jarayonining mohiyatini chuqur bilib, uni tashkil etishda tashabbus ko'rsatish, ishbilarmonlik va epchillik, barcha yangi va ilg'or narsalarni amalda samarali qo'llay bilish maktab o'quvchisi shaxsini rivojlantirish jarayoniga rahbarlik qilish printsiplaridan biridir.

Samarali sinf rahbarlik uslubini maktab hayoti va faoliyatiga tatbiq, etishishshg namunasi bo'lgan kollegial va yakka rahbarlikning birga qo'shib olib borilishi bolalar takdiri, ularning tarbiyasiga pedagoglar jamoasi javobgarligini va direktorning shaxsiy javobgarligini ta'minlaydi.

Sinf rahbarlikning zarur printsiipi rejalilik bo'lib, uning yordamida pedagogik ta'sirlar tizimi va tarbiyaviy ishda izchillikka erishiladi. Rejalilik sinf rahbariga tarbiyaning barcha masalalarini aniq amalga oshirish istiqbollarini namoyon qiladi.

Mazkur ta'limotga asosan maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish va uning amalga oshirilishiga rahbarlik hamda nazoratni uyushtirib borish maktab ichki boshqaruv tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinf dan va maktabdan tashqari ishlarning umummaktab rejasini ma'naviy va ma'rifat bo'yicha direktor o'rinbosari rahbarligida, sinf rahbarlari, metodik birlashmasi, tajribali o'qituvchilar, maktab kutubxonasi, o'quvchi-yoshlar tashkiloti, o'quvchilar uyushmasi, ota-onalar komiteti hamda to'garak rahbarlarining faol ishtirokida tuzish hamda uni maktabning yig'ilishida muhokamadan o'tkazib tasdiqlash maqsadga muvofiqdir.

Maktabning tarbiyaviy jarayoniga rahbarlik qilishda direktor boshlang'ich va o'quv sinflar tarbiyaviy ishida izchillikka rioya qilishga alohida e'tibor beradi, bu bilan ta'lim jarayonida ham, shuningdek, darsdan tashqari vaqtda ham tarbiyaning uzluksizlik va prinsiplarini amalga oshiradi.

Rejalashtirishga qo'yiladigan talablar.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasini bu majburiy pedagogik hujjatdir. Ish reja choraklik, yarim va bir yillik tuzilishi mumkin. Hozirgi sharoitda tajribalarning ko'rsatishiga binoan yarim yillik rejasidan foydalanish ancha samara bermoqda. Rejalashtirishda quyidagilar nazarda tutilsa, uning samarasi oshadi:

1. Reja mahalliy sharoitga qarab, maktabning joylashgan o'rnini, albatta, o'quvchilarning saviyasi, yoshiga qarab mumkin qadar mos tuzilishi kerak.
2. Reja muayyan maqsadga qaratilishi va real (aniq) bo'lishi zarur.
3. Bolalar va o'smirlar uyushmasi bilan kelishilishi lozim.
4. Rejada o'quvchilarning kuzgi, qishki, bahorgi va yozgi ta'tillarida qiladigan ishlari aks etishi kerak.
5. O'tkaziladigan tadbirlarning bajaruvchi shaxslari, muddati va bajarilishi turi aniq, ko'rsatilishi lozim.
6. Reja maktab direktori o'rinbosarlari tomonidan ko'rib, direktor tomonidan tasdiqlanishi shart.

Rejalashtirishda sinf rahbarining pedagogik tayyorgarligi, tajriba va shaxsiy xususiyatlari juda ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyaviy ish jarayonini endi boshlagan, kam tajribaga ega – sinf rahbari, odatda keng qamrovli ish rejasini tuzsa, pedagog esa, chegaralangan reja bilan ishlashi mumkin. Ammo har ikkala holda ham barcha sinf rahbarlarining tarbiyaviy

rejasida tarbiyaviy ish faoliyatining asosiy mazmuni hamda yo'nalishlari to'la aks ettirilmog'i darkor.

3.Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakli va uslublari.

Fuqarolik faoliyati o'z davlati oldidagi huquq va burchlarini tan olishni, jamiyatda belgilagan yashash sharoitiga va axloq me'yorlariga ongli rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma'naviy yetuklikni barqaror etadi:

- islohotlarning taqdiri va samarasi uchun javobgar, yurtimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi shaxslarni shakllantirish borasida ustuvor davlat siyosati yurituvchi;

- siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni davlatning ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilish. Vatanparvarlik va baynalmilallikni his etish, ijtimoiy siyosiy hayotda faol qatnashishga shay turish;

- xalq, davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya'ni qonunchilik tamoyillarini, o'zining Vatan, mahalla, oila oddidagi huquq va burchlarini bilishi, ularga qat'iy amal qilishi. Qonunchilikning buzilishiga murosasiz munosabatda bo'lish;

Jamoat tashkilotlari o'quvchilar bilan darsdan tashqari vaqtlarda olib boriladigan xilma-xil mashg'ulotlarni o'qituvchilar yordamida tashkil qiladilar. Sinfdan tashqari ishlar o'z mazmuniga ko'ra juda xilma-xil: ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, ijtimoiy foydali, badan tarbiya-sog'lomlashtirish ishlari bo'ladi. Sinfdan tashqari ishlar uch xil formada: ommaviy, to'garak va individual formalarda tashkil qilinadi.

Ommaviy shakllar: Ertaliklar, maktab kechalari, bolalar bayramlari, ko'riklar, quvnoqlar va topqirlar to'garagi, sayr, maktab muzeylari, bolalar ishlarining ko'rgazmalari va hokazolar.

To'garak ishlari: maktabdagi har bir to'garak o'zining doimiy ish kunlari va soatlarig ega bo'lishi lozim. To'garakda qat'iy intizom bo'lishi: to'garak a'zolari mashg'ulotlariga kechikmasdan kelishlari, to'garak topshiriqlarini batartib bajarishlari, to'garakning moddiy boyliklarini ehtiyot qilishlari kerak.

Sinfdan tashqari yakka tartibdagi ish: Har bir o'quvchi mayl va qobiliyatlarining rivojlanishiga yordam beradi. Bu ishda sinfdan tashqari o'qish katta ahamiyatga ega. Maktabda har bir sinf uchun sinfdan tashqari o'qish dasturi bor. O'quvchining nima o'qiyotgani va o'qigan narsalarini qanday idrok qilayotganini o'qituvchi bilishi juda muhim. SHuning uchun o'qituvchining sinfdan tashqari o'qishga rahbarligi eng yaxshi kitoblarni targ'ib qilish va o'quvchilarda o'qilgan darsliklarni to'g'ri, chuqur idrok etishni rivojlantirishdan iborat.

Individual topshiriqlarning turlari juda ko'p bo'lib, o'simliklar o'stirish, gullar, svzvotlar yetishtirish ham ana shunday topshiriqlar jumlasiga kiradi. Individual topshiriqlarda har bir o'quvchining imkoniyat va qiziqishlari hisobga olinsa, ular bolalarning qobiliyatlari, iste'dodlarini o'stirishga yordam beradi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida bolalarning madaniy ehtiyojlari va kamolot darajalarini aniqlash bilan shug'ullanadi. Ularga muvofiq tarzda ayrim o'qituvchilar, gruppaga yoki butun sinf bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish.

Sinfdan tashqari ishlar bolalarning yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni ixtiyoriy ravishda, aktiv va mustaqil qatnashishlari sharoitida tashkil qilinadi.

Tuman, shahar, o'lka va respublika hamda maktab o'quvchilari saroylari va uylari – ancha keng tarqalgan maktabdan tashqari muassasalardir. Ular xalq maorifi organlari rahbarligi ostida ishlaydilar.

Maktabdan tashqari muassasa bolalar kutubxonasining ishi diqqatga sazovor. Bolalar kutubxonalari maktablarning I-VIII sinflari o'quvchilariga, shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi kitob o'qiy oladigan bolalarga xizmat ko'rsatadi. Kutubxonaning butun ishi bolalarga yaxshi tarbiya berishga, fan asoslarini o'rganishda o'quvchilarga yordamlashishga, bolalarda o'qish madaniyatini tarbiyalashga, mustaqil ravishda bilim olish malakalarini hosil qilish va mustahkamlashga qaratilgan.

Ko'pgina maktabdan tashqari muassasalarning ishlari misolida, maktabdan tashqari muassasalar o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishida maktab va oilaga jiddiy yordam bermoqdalar degan xulosaga kelish mumkin. O'qituvchi muayyan aholi yashaydigan joyda maktabda qanday muassasalar borligini bilib, ular

bilan hamkorlikda qilinadigan ishni yo'lga qo'yadi, o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni to'garaklarga yo'llaydi. Maktab bolalalari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishni rejalashtirishda maktabdan tashqari muassasalardan olishi mumkin bo'lgan yordamni ham nazarda tutadi. Maktabning tarbiyaviy ish rejasini bolalar muassasalarining rejasiga moslashtirish zarur. Maktab tarbiyaviy ish rejasini o'quvchilar bilan sinfdan va maktabdan tashqarida olib boriladigan ishlarning forma va metodlarini, ularni oqilona yo'lga qo'yishni o'z ichiga oladi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tashkilotchisi, maktab tarbiyaviy ishining umumiy rejasini tuzadi hamda o'quvchilarga har tomonlama tarbiya berishda maktab o'qituvchilari, maktabdan tashqari muassasalar hamda maktabni otaliqqa olgan tashkilotlarning ishlarini bir-biriga muvofiqlashtiradi.

XULOSA.

Tarbiyaviy ishlar bolalarning kundalik hayotidan olingan aniq dalillar va voqealarni, badiiy adabiyot, vaqtli matbuot, kinofilmlardan olingan misollarni tahlil etish hamda muhokama qilish asosida o'tkaziladi. Bu ishlarning xususiyati shundaki, bu bolalarni o'zining axloqiy xatti-harakatlari haqida mulohaza yuritishga va ularga to'g'ri baho berishga o'rgatadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlaridagi o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi va kengaytiradi, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlariga, ijobiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishiga imkoniyat yaratadi.

Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qobiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishni taqozo etadi. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, ahil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarolari bo'lishi kerak.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.
2. O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqan ko'p qirrali ishlarini o'quvchilar tashkilotlari va sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish.
3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish.
4. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

Tarbiyaviy ishning asosiy yo'nalishlari: o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish; ularni milliy istiqlool ruhida tarbiyalash; o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnatini tashkil etish; o'quvchilarda axloq madaniyatini, ularning o'z huquq va burchlariga nisbatan ongli munosabatini tarbiyalash; o'quvchilarda o'z-o'zini boshqarish malakalarini shakllantirishdan iborat.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. I.A.Karimov. O`zbekiston: o`z istiqlol va taraqqiyot yo`ll. T., "O`zbekiston", 1992.
2. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. - T., "O`zbekiston", 1995.
3. A.Jo`raev. Tarbiyaviy darslarni o`tish. -T., "O`qituvchi", 1994.
4. A.K.Munavvarov. Oila pedagogikasi. - T., "O`qituvchi", 1994.
5. UMahkamov. Axloq-odob saboqlari. - T., "Fan", 1994.
6. M.Xaydarov. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq an'analaridan foydalanish. - T., "Yozuvchi", 1995.
7. O.To`raeva. Odobnoma. - T., "O`qituvchi", 1995.
8. J.Yo`ldoshev. Ta'limimiz istiqloli yo`lida. - T., "Sharq", 1996.
9. Z.Qo`ziev. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish. -T., 1997.
10. MJmomova. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi -T., 1999.
11. J.Yo`ldoshev. O`quvchi rha'naviyajini shakllantirish. - T., «Sharq», 2000.
12. R.Mavlonova, O.To`raeva, K.Xoliqberdiev. Pedagogika. -T., "O`qituvchi", 2002.